

ILG'OR TA'LIM TEXNOLOGIYLARI ASOSIDA TALABALARINI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH


O'rinnov U. A.

Buxoro muhandislik – texnologiya instituti professori

Norpulotova G. M.

Osiyo xalqaro universiteti magistri

Ilg'or ta'lif texnologiyasi o'qituvchining aks ettirish faoliyatining mahsuli hisoblanadi. Intellektual mahsulot sifatida u o'z manbalariga ega. Hayot keyslarning eng asosiy manbasi degan tezis hech kimda shubha uyg'otmasa kerak. Bu masalada faqatgina uning keysning mazmuni va shaklini qanchalik belgilashi mumkin ekani haqidagi fikrlar munozaraga sabab bo'lishi mumkin. Ijtimoiy hayot o'zining turfa xil ko'rinishlarida keys stadi tarkibidagi muammoli vaziyat syujeti, muammosi va omillar (faktorial) bazasini shakllantirib beradi. Keys stadining tarkibiy qismi – muammoli vaziyat (keys)ning yana bir muhim manbai bu ta'lif tizimidir. U ta'lif va tarbiya maqsad va vazifalarini, keys stadi texnologiyasining ta'lifning boshqa metodlariga integratsiyasini belgilaydi.

**1-rasm. Pedagogning ijodiy potensiali.**

Fan bu keyslarning uchinchi manbaidir. Aynan fan ikki asosiy metodologiyani belgilab beradi. Ular esa o'z navbatida analitik faoliyat va tizimiylar yondashuv hamda muammoli vaziyatni hal etish jarayonida keys-stadi texnologiyasi tarkibiga integratsiyalashgan boshqa bir qator ilmiy metodlar bilan belgilanadi.

Hozirgi ta'lif tizimidagi samarador o'qitish texnologiyasi - bu keys-stadi ta'lif texnologiyalari vositasida o'qitishdir. Uning vazifasi faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirishdir.

Keys-stadi ta'lif texnologiyalari asosida talabalarni pedagogik mahoratini shakllantirish ularda kasbga munosabatni o'qitish jarayonida talabaning mustaqilligi o'qitishniig reproduktiv shakllariga nisbatan tobora o'sib boradi.

Hozirgi pedagogikaga oid adabiyotlarda muammoli o'qitishning turli tarif va tavsiflar bor. Bizningcha, nisbatan to'liq va aniq ta'rif M.I.Maxmudova tomonidan berilgan bo'lib, unda muammoli o'qitish mantiqiy fikrlar tadbirlari (tahlil, umumlashtirsh) hisobga olingan o'rgatish va dars berish usullarini qo'llash qoidalari va talabalarning tadqiqot faoliyatlarini qonuniyatlarining (muammoli vaziyat, bilishga bo'lgan qiziqish va talab) tizimi sifatida izohlanadi.

Muammoli o'qitishning mohiyatini o'qituvchi tomonidan talabalarning o'quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o'quv vazifalarini, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha ularning bilish faoliyatini boshqarish tashkil etadi. Bu esa bilimlarni o'zlashtirishning ilmiy-tadqiqot usulini yuzaga keltiradi.

Ma'lumki, o'qitishning har qanday inson faoliyatining muayyan qonuniyatları, shaxs rivoji va ular negizida shakllangan pedagogik fanning tamoyillari va qotidalari yotadi. Insonning bilish faoliyati jarayonni mantiqiy bilish ziddiyatlarini hal qilishda ob'ektiv qonuniyatları didaktik tamoyillarga tayanadi. O'qitishning hozirgi jarayoni tahlili psixolog va pedagoglarning fikrlash muammoli vaziyat, kutilgan hayrat va mahliyo bo'lishdan boshlanadi, degan xulosalari haqiqatga yaqin ekanligini ko'rsatadi. O'qitish sharoitida insonning o'sha psixik, emotsiyonal «hissiy holati unga fikrlash va aqliy ishlash uchun o'ziga xos turki vazifasini bajaradi.

Muammoli vaziyat muayyan pedagogik «vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o'ziga xos o'qitish sharoitida yuzaga keladi. Shuningdek, o'rganilgan mavzular xususiyatlaridan kelib chiqib, bunday vaziyatlarni yaratishning maxsus usullarini ishlab chiqish zarur. Shunday qilib, o'qitishda muammoli vaziyat shunchaki «fikr yo'lidagi kutilmagan to'siq» bilan bog'langan aqliy mashaqqat holati emas. U bilish maqsadlari maxsus taqozo qilgan aqliy taranglik holatidir. Bunday vaziyat negizida avval o'zlashtirilgan bilim izlari va yangi yuzaga kelgan vazifani hal qilish uchun aqliy va amaliy harakat usullari yotadi. Bunda har qanday mashaqqat muammoli vaziyat bilan bog'liq bo'lmasligini ta'kidlash o'rinni bo'ladi. Yangi bilimlar avvalgi bilimlar bilan bog'lanmasa, muammoli vaziyat bo'lmaydi. Bunday aqliy izlanish kafolatlanmaydi. Muammoli vaziyat har qanday fikrlash mashaqqatlaridan farq qilib, unda talaba mashaqqat talab qilgan ob'ekt (tushuncha, fakt)ning unga avval va ayni vaqtida ma'lum bo'lgan vazifa, masala bo'yicha ichki, yashirin aloqalarini anglab yetadi.

Shunday qilib, muammoni xosiyatining mohiyati shundaki, u talaba tanish bo'lgan ma'lumotlar va yangi faktlar, hodisalar (qaysiki, ularni tushunishi va tushuntirish uchun avvalgi bilimlar kamlik qiladi) o'rtasidagi ziddiyatdir. Ziddiyat bilimlarni ijodiy o'zlashtirish uchun harakatlantiruvchi kuchdir.

"Keys-stadi" metodikasi ta'lif jarayonini bir nechta bosqichlarga bo'lib chiqadi va har bir bosqichda talabalarning bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan maqsadlar qo'yiladi. Masalan, birinchi bosqichda talabalar asosiy nazariy ma'lumotlarni o'rganishadi, keyingi bosqichda talabalar nazariy ma'lumotlarni amalda o'rganish orqali amakiy ko'nikmalarni shakllantirishadi, so'nggi bosqichda esa talabalar o'zlashtirilgan bilim va amaliy ko'nikmalarni ko'p marotaba olib borilgan mashg'ulotlar orqali rivojlantirishadi.

Bu metodika talabalarning o'zlarini rivojlantirish va o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarini va qayta ishslash qobiliyatini oshirishni maqsad qiladi. Uning asosiy printsipi talabalarning aktiv bo'lishi va o'z fikrlarini bayon etishga, masalalar ustida fikr almashishga imkon berishdir. Bu usul talabalarda o'z fikrlarini ifoda qilish, muammolarga yechim topishni o'rgatadi.

Bugungi kunda turli sohalarda chet tillarni yaxshi biladigan mutaxassislarga talab kundan kunga ortib bormoqda. Bu esa ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan bo'lajak mutaxassislarni o'rganayotgan tillarini til sohiblari darajasida egallashga tayyorlashni taqozo etadi. Bunda chet tillarni o'qitishda talabalar nutqiy faoliyatining barcha turlarini birdek rivojlantirish nihoyatda muhim bo'lib, bu ta'lim muassasalarida mashg'ulotlarni "keys-stadi" innovatsion metodlar asosida tashkil etish va ta'lim jarayoniga samarali interfaol usullarni joriy etish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Bo'lajak kadrlarning kasbiy faoliyatiga oid ingliz tilida kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda CLIL (Content and Language Integrated Learning) o'qitish texnologiyasi tobora ommalashib bormoqda. CLIL bir nechta fanlarning ingliz tilida (yoki boshqa chet tilida) o'rganilishi. Albatta, ingliz tilida fanlarni to'liq o'rganishni tashkil etish juda qiyin, lekin CLIL texnologiyasining elementlari ingliz tili o'quv mashg'ulotlarida nihoyatda muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Chet tilini o'qitishda CLIL texnologiyasini joriy etish va undan faol foydalanish funksional yondashuv bo'lib, uning yordamida kengaytirilgan ta'lim vazifalarini belgilab olish mumkin. CLIL o'quv mashg'ulotlarida bo'lajak mutaxassis kadrlar nafaqat chet tilini, balki til bilan bog'liq bo'limgan mavzuni ham o'rganadilar. Ushbu texnologiyadan foydalanish bo'lajak mutaxassis kadrlarni kasbiy faoliyatiga oid dunyoqarashini kengaytiradi va muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Kasbiy faoliyatga oid ingliz tilini o'qitish jarayonini hisobga olsak, maxsus fanlarda terminlar mavjud bo'lgan o'quv materiallarini tanlasak, kelajakda maxsus fanlar bo'yicha ma'lumotlarni kengaytirish va qo'shish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Ya'ni, o'qitishning uзвиyligini, izchilligini va tizimliligini hisobga olamiz. O'quv jarayonini o'rganishni tahlil qilish va uning mazmuni asosida tanlash ularning muvofiqlashtiruvchi, shakllantiruvchi, tizimli, motivatsion, kognitiv, diagnostik va kasbiy-prognostik kabi didaktik vazifalarini ajratish imkonini beradi.

Ma'lumki, bo'lajak mutaxassis kadrlarning olgan bilim sifati bu ularning maxsus fanlarining o'zlashtirish darjasasi va kasbiy faoliyatning murakkab masalalarini tushuna olish qobiliyatiga bog'liq. Agar biz maxsus va ixtisoslashtirilgan fanlarni hisobga olgan holda ularni ingliz tili bilan integrallashtirsak, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish va bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga yo'naltirish borasida sezilarli natijalarga erishishimiz mumkin.

Tajribamizga asoslanib, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatiga yo'naltirilgan ingliz tilida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonida "keys-stadi" innovatsion mezonlarni ko'rsatib o'tishni joiz deb topdik:

O'rganilgan material hajmi. O'quv mashg'uloti materiali haddan tashqari hajmli bo'lmasligi lozim. Chunki maxsus fanlarni hisobga olish va kasbiy faoliyatga oid ingliz tilida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonida leksik materialning haddan tashqari ko'pligiga duch kelishimiz mumkin, bu esa o'quv jarayoni samaradorligining pasayishiga sabab bo'ladi.

Leksik va grammatik materialning talabalar qiziqishlari va bilim darajasiga mosligi. O'quv mashg'uloti davomida grammatik mashqlardan va leksik materiallardan foydalanish kasbiy faoliyatga oid ingliz tilida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning samarali usuli bo'lishi mumkin. Ammo bo'lajak mutaxassis kadrlarning qiziqishi va bilim darajasini hisobga olish, o'qituvchining pedagogik faoliyatida ijobjiy yutuq hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta'lif jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. p.f.d. disser. – T., 2007. 305-b.
2. Himmataliev D.O. Kasbiy faoliyatga tayyoragarlikni diagnostika qilishda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi: p.f.d. (DSc) diss. avtoref. – T.: 2018. - 70 b.
3. O'rinnov U.A. Oliy ta'lif bitiruvchilarini tayyorlashga oid ilmiy – uslubiy ishlar va tadqiqotlar tahlili // Mug'allim hem uzlusiz bilimlendiru. 2020. №1 82-87 b.